

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG'ARMALARI
FAKULTETI**

"PENSIYA ISHI" KAFEDRASI

Курс иши

Mavzu: Davlat budjetining solikli daromadlari, ularning tarkibi va tuzilishi

Bajardi: BPI-70 A.Ашурбоев
Tekshirdi: k.o'q. Ш.Хамдамов

TOSHKENT-2014

Кириш

1. Давлат бюджети даромадларини шакллантириш ва уларни бошқаришнинг зарурлиги ва аҳамияти
2. Давлат бюджети даромадларининг асосий турлари ва уларни шакллантиришнинг ташкилий –ҳуқуқий асослари
3. Davlat budjetining daromadlari tizimida solikli daromadlarning tutgan o'rnini va uning tahlili
4. Davlat jamlanma budjetining daromadlarini shakllanishida ishtirok etuvchi boshqaruv organlarini axborot bilan ta'minlashning yagona bazasini shakllantirish muammolari va echimlari

Хулоса

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

Кириш

Дунёдаги барча мамлакатларда давлат молиясининг муҳим таркибий қисмини давлат бюджети ташкил этади. Давлат бюджети жамият ижтимоий иқтисодий ҳаётида устувор аҳамият касб этганлиги боис, мамлакатимиз иқтисодиётини модернизациялаш жараёнида солиқ тўловчиларга солиқ юкини камайтириш, солиқ солинадиган базанинг кенгайтириш орқали давлат бюджетининг даромадларини ошириш, харажатлар қисмида эса самарасиз йўналишларни қисқартириш борасида қатор чора-тадбирлар амалга ошириб келмоқда. Давлат бюджетининг даромадлар қисми аксарият мамлакатларда солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар асосида шакллантирилади. Шу жумладан ушбу кўрсаткич ривожланган давлатларда 80-90 фоизни ташкил этса, ривожланаётган мамлакатларда 90-95 фоизга тенг. Мамлакатимизда давлат бюджети даромадининг 90 фоиздан ортиғи солиқлар орқали шакллантирилади. Шу боис, Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримов давлат бюджетининг асосий даромад манбаи ҳисобланган солиқлар ҳақида шундай деган эди: “2013-йилда мутаносиб ва барқарор давлат бюджетини шакллантириш мақсадида солиқ маъмурчилигини янада такомиллаштириш ва эркинлаштириш, маҳаллий бюджетларнинг даромад қисмини мустаҳкамлаш, бутун солиқ тизимини соддалаштириш ва унинг ошқоралигини таъминлаш бўйича тегишли тадбирлар кўзда тутилмоқда. Шуларнинг ҳисобидан солиқ юки даражасининг ошмаслиги таъминланиб, ялпи ички маҳсулотга нисбатан бу кўрсаткич 21,3 фоизни ташкил этади¹”. “2013 yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig‘ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi. Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga

¹ И.А. Каримов “Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш” Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2012-йилнинг асосий якунлари ва 2013-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. 18.01.2013 йил. Халқ сўзи газетаси

yoʻnaltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat oʻzgarishlari alohida eʼtiborga sazovordir.”-deydi prezidentimiz oʻz maʼruzalarida².

Давлатнинг ижтимоий-иқтисодий вазифаларини ўз вақтида тўлиқ ва ижобий ҳал этиш маълум молиявий асосни талаб этадики, айнан ушбу асоснинг марказий бўғинини давлат бюджети даромадлари ташкил этади. Давлат молиясини соғломлаштириш, давлат бюджети даромадларининг барқарорлигини, уларни шакллантириш манбалари мукамал нисбатини ва бутлигини таъминлаш ҳамда уларни самарали бошқариш масалалари Ўзбекистон Республикасида амалга оширилаётган бюджет-солиқ тизимидаги ислохотларнинг ҳозирги босқичида янада муҳим аҳамият касб этмоқда. Ўзбекистон Республикасида олиб борилаётган солиқ-бюджет тизимидаги чуқур ислохотларга, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси ҳамда “Бюджет тизими тўғрисида” ги қонуннинг қабул қилинганлигига ва шу асосда давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг янги усули ва механизми ишлаб чиқилганлигига қарамасдан, бу соҳада ҳал қилиниши зарур бўлган муаммолар ҳамон мавжуд. Давлат бюджетининг солиқли ва солиқсиз даромадлари шаклланишини барқарорлаштириш, тўлов интизомига риоя этиш, солиқларнинг бюджет тизими бўғинлари ўртасида тақсимланиш механизмини такомиллаштириш, солиққа оид қонунбузарликларга барҳам бериш ва уларнинг олдини олиш, иқтисодиётнинг модернизациялашуви шароитида давлат бюджети даромадларини шакллантириш жараёнини самарали бошқаришнинг асосий йўналишларини ёритиш каби масалалар ҳамон ўзининг мукамал ечимини кутмоқда.

²I.A. Karimov “2014 yil yuqori oʻsish surʼatlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, oʻzini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili boʻladi” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda Oʻzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi maʼruzasi. 18.01.2014 yil.-www..uza.uz- internet sayti maʼlumotlari asosida

Юқорида таъкидланганларнинг барчаси танланган мавзунинг долзарблигини белгилаб бериб, унинг устида алоҳида илмий изланиш олиб боришни тақозо этади.

1. Давлат бюджети даромадларини шакллантириш ва уларни бошқаришнинг зарурлиги ва аҳамияти .

Бюджет даромадлари давлатнинг марказлаштирилган молиявий ресурслари бир қисмидан иборат бўлиб, давлатнинг функцияларини бажариш учун зарурдир. Улар пул маблағлари фондларини шакллантириш жараёнида вужудга келадиган иқтисодий (молиявий) муносабатларни ўзида ифода этади ва турли даражадаги ҳокимият органларининг ихтиёрига келиб тушади.

Давлат бюджети ялпи ички маҳсулотни қайта тақсимлаш босқичларида юзага келадиган алоҳида иқтисодий категориялар – бюджет даромадлари ва харажатлари орқали амал қилади. Бюджет даромадлари ва харажатлари – объектив тарзда мавжуд ва амал қилувчи категориялар бўлиб, уларнинг ҳар бири ўзига хос вазифани бажаради: даромадлар давлат фаолиятининг молиявий асоси бўлиб хизмат қилса, харажатлар эса турли-туман умумдавлат ва умумжамиyat эҳтиёжларини қондиришга хизмат қилади.

Давлат бюджети даромадлари давлатнинг ихтиёрига тушувчи ва унинг марказлашган пул фондини шакллантирувчи пул маблағларидир. Давлат бюджети даромадлари давлат билан корхоналар, ташкилотлар, муассасалар ва аҳоли ўртасидаги мамлакат бюджет фондининг шаклланиши жараёнида юзага келадиган иқтисодий муносабатларни англатади.

Қуйида келтирилган расмда (1-расм) келтирилганига кўра бюджет даромадлари жамият миллий даромадининг бир қисмини, шунингдек, аҳоли шахсий даромадларининг бир қисмини мажбурий ва ихтиёрий тўловлар воситасида давлат томонидан жалб қилиш йўли билан тақсимлаш ва қайта тақсимлаш маҳсулидир.


Шуни таъкидлаш керакки, айрим адабиётларда, маърузаларда ва бошқа илмий ишларда “давлат бюджети даромадларининг асосий бош манбаи солиқлардир”, деган бизнинг назаримизда бирмунча нотўғри бўлган фикрларни учратиш мумкин. Аслида, давлат бюджети даромадларининг асосий манбаи бўлиб мамлакат ялпи миллий маҳсулоти ва миллий даромади ҳисобланади, давлат марказлашган пул фондига маблағларни жалб қилиш куроли эса солиқлардир.

Бюджет даромадлари тўловчиларига кўра, солиққа тортиш объектларига кўра, ундириш усулига кўра, тўлаш муддатларига кўра бир-биридан фарқ қилишига қарамасдан, уларнинг ҳаммаси давлат бюджетининг даромад қисмини шакллантиришга хизмат қилади. Бюджетга тўловлар пул шаклида амалга оширилади, бюджетга тушган пуллар ўз эгасини йўқотади, яъни бюджетга тўлов тўловчи шахс аниқ бир мақсадни кўзлаб тўлов тўламайди, бюджет даромадларининг шаклланиши пул маблағларининг бир томонлама ҳаракати асосида содир бўлади. Давлатнинг умумий ҳазинасига тушган пуллар давлат ва жамият манфаатлари йўлида ишлатилади. Шу сабабли давлат бюджетининг шаклланиши ва ишлатилишида давлатнинг, хўжалик юритувчи субъектларнинг ва алоҳида шахсларнинг манфаатлари кесишади.

Демак, бюджет даромадларининг асосий моддий манбаи миллий даромаддир. Агар давлатнинг молиявий эҳтиёжларини қондириш учун миллий даромад етарли бўлмаса, давлат бундай эҳтиёжни қондиришга миллий бойликни жалб этиши мумкин. Миллий бойлик деганда маълум бир даврда жамиятнинг ихтиёрида бўлган, ҳозирги ва ўтган авлоднинг меҳнатлари эвазига яратилган моддий неъматлар ҳамда кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш жараёнига жалб қилинган табиий ресурслар мажмуи назарда тутилади.

Қайд этилганларни инобатга олган ҳолда бюджет даромадларининг маъно-мазмунини ифодаловчи унга қуйидагича таъриф бериш мумкин: пул маблағлари фондларини шакллантириш жараёнида вужудга келувчи

иқтисодий (молиявий) муносабатларни ўзида ифода этадиган, ҳокимият органларининг турли даражалари ихтиёрига келиб тушадиган, давлатнинг функцияларини бажариш учун зарур бўлган давлат марказлаштирилган молиявий ресурсларининг бир қисми бюджет даромадлари дейилади.



1-расм. Давлат бюджети орқали ялпи ички маҳсулот қийматининг тақсимланиши³

Мамлакатларнинг давлат тузилишига боғлиқ равишда бюджет даромадлари қуйидагича фарқланади:

- 1) марказий (давлат) бюджети даромадлари;
- 2) унитар (ягона) давлатлардаги маҳаллий бюджетлар даромадлари.

Федератив (иттифоқчилик) тузилишига эга бўлган давлатларда бюджет даромадларининг бу икки кўриниши федерация аъзолари бюджетларининг даромадлари билан тўлдирилади.

Бюджет даромадлари давлатнинг даромадларига нисбатан торроқ бўлган тушунчадир. Чунки давлат даромадлари ҳокимият барча даражалари бюджетларининг молиявий маблағлари билан биргаликда яна ўзининг таркибига давлат нобюджет фондлари ва барча давлат секторига тегишли бўлган бошқа ресурсларни ҳам қамраб олади.

Бюджет даромадларининг асосий моддий манбаи миллий даромаддир. Агар давлатнинг молиявий эҳтиёжларини қондириш учун миллий даромад етарли бўлмаса, давлат бундай эҳтиёжни қондиришга миллий бойликни жалб этиши мумкин. Бу ерда миллий бойлик дейилганда маълум бир даврда жамиятнинг ихтиёрида бўлган, ҳозирги ва ўтган авлоднинг меҳнатлари эвазига яратилган моддий неъматлар ҳамда кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш жараёнига жалб қилинган табиий ресурслар мажмуи назарда тутилаяпти.

Миллий даромадни давлат томонидан давлатлаштириш (давлат ихтиёрига ўтказиш) турли методлар ёрдамида амалга оширилади. Солиқлар, давлат кредити ва пул эмиссияси давлат ҳокимият органлари томонидан миллий даромадни қайта тақсимлаш ва бюджет даромадларини шакллантириш учун фойдаланилаётган методларнинг асосийлари бўлиб

³ Б.Нурмухамедова, Н.Кабилова. Финансы.. Т.; Издательский дом «Тасвир», 2008. 100-стр.

ҳисобланади. Бу методлар ўртасидаги нисбат мамлакатлар ва даврлар бўйича турлича бўлиб, мамлакатдаги иқтисодий вазият, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа қарама-қаршиликларнинг ўткирлик даражаси, давлатнинг молиявий сиёсати ва молиявий аҳволи билан белгиланади.

Миллий даромадни қайта тақсимлашнинг асосий методи солиқлар ҳисобланади. Улар ёрдамида бюджет даромадларининг асосий салмоғи таъминланади. Турли мамлакатлар марказий бюджетларининг даромадларида солиқ тушумлари қарийб 90%ни ташкил этади. Федерация аъзолари ва маҳаллий бюджетлар даромадларида солиқларнинг салмоғи нисбатан пастроқдир. Бу бюджетлар бириктирилган (тегишли бюджетларнинг ўз даромадлари) ва тартибга келтирувчи (бюджет тизимининг юқори бўғинидан қуйи бўғинига бериладиган даромадлар) даромадлар ҳисобидан шакллантирилади.

Ўзининг молиявий аҳамиятига кўра давлат кредитлари бюджет даромадларининг навбатдагиси бўлиб ҳисобланади. Келгуси йил учун бюджет тузилаётган пайтда бюджет дефицити мавжуд бўлса (вужудга келса), давлат ана шу методдан фойдаланади. Давлат мамлакатда молиявий аҳволнинг мураккаблашиши ва бюджет дефицити ҳажмининг ошишига мувофиқ равишда давлат кредитига мурожаат қилади. Бундай кредитларни олишнинг икки йўли мавжуд:

1) давлат номидан қимматли қоғозларни чиқариш йўли билан жисмоний ва юридик шахслардан давлат қарзларини олиш;

2) марказий банк ва бошқа кредит ташкилотларидан олинган кредитлар.

Давлат кредит операциялари ҳажмининг ошиши давлат қарзининг ошишига олиб келади. Ўз навбатида, давлат қарзлари солиқлар билан чамбарчас боғлиқ. Уни узиш (қайтариш) ва у бўйича фоизларни тўлаш, асосан, солиқ тўловлари ёки давлатнинг янги кредит операциялари ҳисобидан амалга оширилади.

Фавкулудда ҳолатларда, солиқ тўловлари ва давлат кредитларини олиш мураккаблашганда давлат қоғоз пуллар эмиссиясига мурожаат қилади. Бу бюджет даромадларини тўлдиришнинг энг ноқулай методидир. Чунки бу методнинг қўлланилиши тегишли тартибда товар билан таъминланмаган пул массасининг ўсишига ва инфляциян жараёнларнинг кучайишига, пировардида эса, оғир ижтимоий-иқтисодий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Бюджет даромадлари мамлакат ялпи ички (миллий) маҳсулотини тақсимлаш ва қайта тақсимлаш умумий жараёнининг элементларидан бири бўлиб, оралиқ (транзит) характерга эга. Улар юридик ва жисмоний шахсларга тегишли бўлган даромадлар ва жамғармаларнинг бир қисмини бюджетга ўтказилиши натижасида вужудга келади. Бюджет даромадларининг моддий-буюмлашган мазмунини давлатнинг ихтиёрига бориб тушган пул маблағлари ташкил этади. Бу молиявий (бюджет) категориянинг намоён бўлиш шакли бюджетга бориб тушувчи турли солиқлар, тўловлар, йиғимлар, божлар ва ажратмалардан иборат.

Миқдорий жиҳатдан бюджетнинг даромадлари яратилган (ишлаб чиқарилган) ялпи ички (миллий) маҳсулотда (миллий даромадда) давлатнинг улушини кўрсатади. Уларнинг абсолют ҳажми ва салмоғи мамлакатнинг ялпи ички (миллий) маҳсулоти (миллий даромади)нинг умумий ҳажми, у ёки бу даврда давлатнинг олдида турган сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, муҳофаа ва бошқа вазифалар билан белгиланади. Ана шуларга мувофиқ равишда бюджетда маблағларни концентрация қилиш (тўплаш, йиғиш) миқдори ва уларни ундиришнинг шакл ва методлари аниқланади.

Энг аввало, бюджет даромадлари ўзларининг манбаларига кўра қуйидаги уч гуруҳга бўлинади:

- солиқли даромадлар;
- носолиқли даромадлар;
- ўтказиладиган пул маблағлари.

Бюджетнинг солиқли даромадлари таркиби мамлакат солиқ қонунчилигига мувофиқ умумдавлат солиқлари ва йиғимлари, маҳаллий солиқлар ва йиғимлар, божхона бождари, бож йиғимлари ва бошқа бож тўловлари, давлат божи, пеня ва жарималардан иборат.

Бошқариш инсон фаолиятининг барча соҳаларига, шу жумладан, молия соҳасига ҳам хосдир. Умумий ҳолда олиб қарасак, бошқариш – бошқариш субъектининг бошқариш объектига таъсир этиш жараёни, яъни маълум бир ижобий натижага эришиш учун мақсадга мувофиқ таъсир этишнинг усуллари, дастак ва воситалари йиғиндисидир. Бюджет тизими доирасида молиявий ресурсларнинг тақсимланиш ва қайта тақсимланиш жараёни ҳар доим маълум мақсадларга эришишга қаратилган.

Ҳар қандай бошқарув тизимида бўлгани каби, бюджет даромадларини бошқаришда ҳам бошқариш объектлари ва субъектлари мавжуд бўлади.

Давлат бюджети даромадларини бошқариш объектлари бўлиб уни шакллантириш билан боғлиқ бўлган турли молиявий муносабатлар ҳисобланади. Бу молиявий муносабатларни бошқаришга хизмат қилувчи ташкилий тузилмалар (молия органлари, солиқ идоралари ва бошқалар) эса давлат бюджети даромадларини бошқариш субъектларидир. Албатта давлат бюджети даромадларини бошқаришнинг зарурлиги бюджет даромадларининг ўз вақтида давлат бюджетига келиб тушиши, солиқ боқимандаликларини бартараф этилиши, бюджетлар ўртасида давлат бюджети даромадларини тақсимлашни аниқ механизмларини шакллантириш, қуйи бюджет бўғинларини баланслигини таъминлаш ҳамда режалаштирилган харажатларни маблағ билан таъминлаш каби омилларни амалга оширишдан иборатдир.

2. Давлат бюджети даромадларининг асосий турлари ва уларни шакллантиришнинг ташкилий –ҳуқуқий асослари

Ҳозирги амалиётда давлат бюджетининг даромадлари қуйидаги тартибда классификация қилинапти:

1. Тўғри (бевосита) солиқлар. Уларнинг таркибига юридик шахсларнинг фойдасидан олинadиган солиқ; савдо ва умумий овқатланиш корхоналари учун ягона солиқ тўловидан Давлат бюджетига ажратмалар; ягона солиқ тўловидан (микрофирмалар ва кичик корхоналар билан биргаликда) Давлат бюджетига ажратмалар; жисмоний шахсларнинг даромадидан олинadиган солиқ ва тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланаётган юридик ва жисмоний шахсларнинг даромадидан олинadиган қатъий солиқ киради;

2. Эгри (билвосита) солиқлар. Бу солиқларнинг таркиби қўшилган қиймат солиғи; акцизлар; божхона бождари; жисмоний шахслардан олинadиган ягона бож тўлови; транспорт воситалари учун бензин, дизель ёқилғиси ва газ истеъмолига жисмоний шахслардан олинadиган солиқдан иборат;

3. Ресурс тўловлари ва мол-мулк солиғи. Бу гуруҳга кирувчи солиқлар ва тўловлар мол-мулк солиғи; ер солиғи; ер ости бойликларидан фойдаланганлик учун солиқ ва сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқни ўз ичига олади;

4. Устама фойдадан олинadиган солиқ;

5. Ободонлаштириш ва ижтимоий инфратузилмани ривож-лантириш учун солиқ;

6. Бошқа даромадлар.

Шунингдек, юридик нуқтаи-назардан, бюджет даромадлари икки гуруҳга ажратилиши мумкин:

- республика бюджети даромадлари;

- Қорақалпоғистон Республикаси бюджети ва маҳаллий бюджетлар даромадлари.

Давлат бюджети даромадларини шакллантириш ва уларни бошқариш масалалари давлатнинг қонуний-меъерий ҳужжатларга асосланади. Қуйида

келтирилган 2-расмда давлат бюджети даромадларини шакллантириш ва уларни бошқаришнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари келтирилган.



2-расм. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг ҳуқуқий асослари⁴

Бюджетларнинг барча даромадлари у ёки бу бюджетларга бириктирилишига қараб иккига бўлиниши мумкин:

- 1) бюджетнинг ўз даромадлари;
- 2) бюджетнинг тартибга келтирувчи даромадлари.

⁴ Муаллиф томонидан мустақил тузилди

Мамлакат солиқ қонунчилигига мувофиқ равишда доимий асосда тегишли бюджетга тўлиқ ёки қисман бириктирилган даромадлар бюджетнинг ўз даромадлари дейилади. Уларга тегишли бюджетларга бириктирилган солиқли ва носолиқли даромадлар киради.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan budjet tizimi budjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi respublika budjetining, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta'minlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining ijrosi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan ta'minlanadi. Budjet tashkilotlari budjetdan tashqari jamg'armalarining ijrosi budjet tashkilotlari tomonidan ta'minlanadi. Budjet tizimi budjetlarining ijrosi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan g'azna ijrosi yo'li bilan amalga oshiriladi. G'azna ijrosi faoliyatni chet elda amalga oshirayotgan budjet tashkilotlariga va budjet mablag'lari oluvchilarga tatbiq etilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida budjet tizimi budjetlari, budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar uchun shaxsiy g'azna hisobvaraqlari ochiladi. Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar o'z xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag'larni moliya yili tugaguniga qadar sarflashga haqli. Mamlakatda mudofaa qobiliyatini, xavfsizlikni ta'minlash, ichki tartibni saqlash bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Budjet tizimi budjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo'shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Keyingi yilning yanvar oyi moliya yiliga qo'shimcha vaqt davri bo'lib, bu davr mobaynida o'tgan yil uchun budjet tizimi budjetlarining ijrosi amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi budjet tizimi

budjetlarining qo‘shimcha vaqt davridagi ijrosi bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazish tartibini va oxirgi muddatlarini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromadlari tizimi o‘z ichiga qo‘yidagi daromad turlarini qamrab oladi:

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti daromadlari⁵:

- 1) umumdavlat soliqlari, shu jumladan:
 - yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
 - yagona soliq to‘lovi;
 - jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
 - qo‘shilgan qiymat solig‘i;
 - aktsiz solig‘i;
 - er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 2) bojxona bojlari;
- 3) qo‘shimcha foyda solig‘i;

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi 51-modda (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-I-son) 3-modda. 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan

4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi;

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to'lanishidan tushgan tushumlar, qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar, aksiyalarning davlat ulushi (payi) bo'yicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

3. Davlat budjetining daromadlari tizimida solikli daromadlarning tutgan o'rni va uning tahlili

Davlat budjetining daromadlari asosan soliqlar vositasida shakllanadi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda biz 2009-2013 yillarda davlat budjetining daromadlari tizimini shakllanishida soliqlarning tutgan o'rni va ahamiyatini tahlil qilishimiz mumkin.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ya'ni O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarining asosiy salmog'i qo'shilgan qiymat solig'iga to'g'ri kelmoqda, agar ushbu soliq 2009 yilda jami jamlangan budjet tizimi daromadlarining 29,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 30,4% ni, 2011 yilda 32,3% ni , 2012 yilda 33,0 % ni va 2013 yilda 30,8% ni tashkil etgan.

1-jadval

2009-2013 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy ko‘rsatkichlari⁶

Ko‘rsatkichlar	2009 yil		2010 yil		2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln.so‘ m	jami nis-n, %da	mln.so‘ m	jami nis- n, %da	mln.so‘ m	jami nis-n, %da	mln.so‘ m	jami nis- n, %da	mln.so‘m	jami nis-n, %da
I. Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz - jami	104213 82,5	100	131163 96,9	100	1617856 3,5	100	2061410 0,0	100, 0	2510490 0,0	100,0
1.To‘g‘ri soliqlar	276917 2,4	26,6	342060 2,8	26,1	4238732 ,8	26,2	5196400 ,0	25,0	6583100, 0	26,2
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	542342 ,9	5,2	645476, 1	4,9	825011, 7	5,1	917200, 0	4,0	1239000, 0	4,9
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan yagona soliq	222415 ,1	2,1	297034, 7	2,2	527481, 4	3,3	703500, 0	3,0	817300,0	3,3

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi

to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar										
1.3. Yagona soliq to'lovidan davlat budjetiga ajratmalar	256002,2	2,5	346321,2	2,6	378360,0	2,3	538500,0	3,0	755100,0	3,0
1.4. Jismoniy shaxslar-dan olinadigan daromad solig'i	1281600,0	12,3	1535033,4	11,7	1789700,0	11,1	2372700,0	12,0	2769700,0	11,0
1.5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy soliq	108600,0	1,1	139145,7	1,1	187547,1	1,1	218100,0	1,0	342100,0	1,4
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzil-mani rivojlantirish solig'i	358212,2	3,4	457591,7	3,5	530632,6	3,3	446400,0	2,0	659900,0	2,6
2. Egri soliqlar	5162093,6	49,5	6973809,5	53,1	8656853,1	53,5	11187800,0	54,0	13039400,0	51,9
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	3093980,9	29,7	3987982,3	30,4	5228773,9	32,3	6784500,0	33,0	7737800,0	30,8
2.2. Aktsiz solig'i	150382	14,4	219109	16,7	2481794	15,3	3115500	15,0	3726500,	14,8

	7,0		2,1		,0		,0		0	
2.3. Bojxona boji	361100,0	3,5	479267,2	3,8	515980,5	3,2	732400,0	4,0	992600,0	4,0
2.4. Transport vosita-lariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlat-ganlik uchun olinadigan soliq	203185,7	1,9	315467,9	2,4	430304,7	2,6	555400,0	3,0	582500,0	2,3
3. Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	1662498,0	16,0	1974143,8	15,1	2308908,7	14,3	2746400,0	13,0	3755500,0	15,0
3.1. Mol-mulk solig'i	319045,7	3,1	354128,5	2,7	490536,2	3,0	642000,0	3,0	831400,0	3,3
3.2. Er solig'i	275098,8	2,7	303850,1	2,3	346862,9	2,1	446000,0	2,0	646300,0	2,6
3.3. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1024844,0	9,8	1265000,0	9,6	1409715,0	8,7	1585300,0	8,0	2180100,0	8,7
3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	43509,5	0,4	51165,2	0,4	61794,6	0,4	73100,0	0,1	97700,0	0,4
4. Ustama foyda solig'i	238498	2,3	25695,7	0,2	142314,	0,8	250000,	2,0	294500,0	1,2

	,2				4		0			
5. Boshqa daromadlar	589120	5,6	722145,	5,5	831754,	5,1	1233500	6,0	1432400,	5,7
	,3		1		5		,0		0	

Davlat budjeti daromadlariga ta'sir qiluvchi omillar juda ham ko'p bo'lib, ularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ya'ni yalpi ichki mahsulot hajmi, narxlarning o'sish darajasi, aholining ish bilan bandligi hamda daromadlari va h.k.;
- davlatning fiskal siyosati, ya'ni soliq stavkalarini o'zgartirish, ular bo'yicha imtiyozlar berish, xarajatlarni kamaytirish yoki ko'paytirish va b.;
- boshqa omillar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari⁷:

1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

yagona soliq to'lovi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;

qo'shilgan qiymat solig'i;

aktsiz solig'i;

er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan:

obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;

transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

mol-mulk solig'i;

er solig'i;

yagona er solig'i;

ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) bozorlardan tushadigan daromadlar;

⁷ O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi 52-modda (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son) 3-modda. 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan

5) boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Boshqa daromadlarga davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan ajratiladigan subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining daromadlari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aktsiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

Mahalliy budgetlarning daromadlari tizimini ikki guruhga ajratish mumkin, ya'ni mahalliy budgetlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlari tizimiga.

Biriktirilgan daromadlar – bu budget huquqi sub'ektiga tegishli mablag'dir, ya'ni yuqori budgetni chetlab o'tib, doimiy asosda, qat'iy belgilangan ulushda yoki to'liqligicha tegishli budgetga kelib tushuvchi mablag'lardir. Biriktirilgan daromadlar asosini mahalliy soliqlar va yig'imlar, qat'iy ulushda va doimiy asosda mahalliy budgetlarga berilgan umumdavlat solio'laridan o'tkazmalar tashkil etadi. Davlat mahalliy hukumat organlariga ular qaramog'idagi biriktirilgan daromadlarning ortiqcha mavjudligini moliyaviy resurs sifatida, ularga biriktirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim etadi.

Quyida keltirilgan 2-jadvalda 2014 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099- sonli qarori bilan tasdiqlangan

mahalliy soliqlar va yigʻimlarning eng yuqori chegarasi meʼyorlari va stavkalari keltirilgan. Koʻrinib turibdiki mahalliy soliqlar va yigʻimlarning chegaraviy stavkalari ushbu Qaror bilan oʻrnatiladi va keyinchalik xududiy deputatlar kengashida qaror qabul qilinib, ushbu soliqlar stavkalari oʻzgartirilishi mumkin. Faqatgina yuqoridagi Qarorga asosan transport vositalari uchun yigʻiladigan soliq stavkasi oʻzgarmaydi, qatʼiy ravishda belgilanadi.

2-jadval

2014 yil uchun mahalliy soliqlar va boshqa majburiy tulovlarning chegaraviy stavkalari⁸

№	Soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning turlari	Asosiy stavkalari
1	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligʻi	Sof foydaga nisbatan 8 % miqdorida
2.	Jismoniy shaxslardan isteʼmol soligʻi: -Transport vositalari uchun benzin -Transport vositalari uchun dizel yoqilgʻisi -transport vositalari uchun zichlashtirilgan gaz - transport vositalari uchun suyultirilgan gaz	1 litr uchun 265soʻm, tonnasiga 352000 soʻm 1 litr uchun 265soʻm, tonnasiga 322000 soʻm 1 m ³ uchun 220 soʻm 1 litr uchun 180 soʻm
3	Aloxida tovarlar bilan chakana savdo qilish xuquqi uchun yigʻim: -alkogol mahsulotlari - qimmatboho toshlar va metallardan yasalgan buyumlar	1 oy savdo qilish uchun 5 minimal ish haqigacha 1 oy savdo qilish uchun 3,5 minimal ish haqigacha
4	Avtotransport vositalarini tuxtash joyi xizmatlari uchun yigʻim	Har oy uchun 8 minimal ish haqigacha

⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrda qabul qilingan “2014 yil uchun asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlar va davlat byudjetining asosiy parametrlari toʻgʻrisida” gi PQ-2099 sonli Qarori asosida tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi”ga muvofiq, *tartibga soluvchi daromadlar* - budjet tizimi budjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar. Soliq bo‘lmagan to‘lovlarga budjet tizimi budjetlariga kelib tushadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘lmagan to‘lovlar kiradi⁹.

Tartibga solinadigan daromadlarga ushbu maqsadlar uchun ishlatiladigan barcha moliyaviy resurslar, ya’ni alohida umumdavlat soliqlaridan o‘tkazmalar, dotatsiyalar, subventsiyalar, budjet ijrosi davomida turli darajadagi budjetlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan o‘zaro hisob-kitoblar kiradi.

Umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning me’yorlari davlat qonunchiligi asosida belgilanib, ular Respublikamiz hududlari bo‘yicha turlicha taqsimlangan. Buning asosiy sababi hududlarning notekis rivojlanishi, ulardagi iqtisodiy-ijtimoiy omillardir.

Umumdavlat daromadlari va soliqlari har yili qonun bilan belgilangan tartibda o‘rnatilgan me’yorlar asosida tegishli budjetlar o‘rtasida taqsimlanadi. Tegishli ma’muriy-hududiy bo‘linmaning budjeti uchun o‘rnatiladigan mazkur me’yorlar asosan quyidagilarni e’tiborga olgan holda o‘rnatiladi:

- hududlarning moliyaviy ahvoli hamda ularning o‘z daromad bazalarining holatiga ko‘ra;
- hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa umumdavlat vazifalarining va dasturlarning mavjudligi va amal qilishiga ko‘ra;
- hududlar bo‘yicha tovarlar va xizmatlar narhlaridagi farqlarning mavjudligiga ko‘ra;
- har bir hudud bo‘yicha aholi soni, tarkibi va zichligi bo‘yicha;
- tegishli hududda joylashgan budjet tashkilotlari va budjet mablag‘larini o‘z tasarrufiga oluvchilarning budjet mablag‘lariga bo‘lgan talabiga ko‘ra.

O‘zbekistonda bu me’yorlarning 2012-2014 yillardagi miqdorlarini 3-jadval asosida kuzatishimiz mumkin. Bu me’yorlar moliyaviy yil boshlangunga qadar

⁹ O‘zbekiston Respublikasi “Budjet kodeksi” 3-moddasidan. 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan.

umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xarajatlarning umumiy hajmi bo'yicha qaror qabul qilinganidan so'ng o'rnatiladi. Bu me'yorlarning

3-jadval

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlardagi
ajratmalar me‘yorlari ¹⁰**

Soliq turi	Yuridik shaxslarning daromadi (foydasi) ga soliq			Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan yagona soliq			Mikrofirma va kichik korxonalardan yagona soliq			Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq			QQS			Aksiz solig‘i									Er osti boyliklarid foydalangan uchun sol				
																Benzin			Dizel yoqilg‘i si			Aviatsiya kerosini					Alkogol mahsuloti (etil spirtida n		
Hududlar nomi																													
yillar	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013	2014	2012	2013			
Qoraqalpog‘iston Respublika	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100									50	50	100	100	100	
Andijon v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100									50	50	100			
Buxoro v-ti	53	55	55	100	100	100	100	100	100	50	50	50	53	55	55	53	55	55	53	55	55	53	55	55	50	50	50		
Djizax v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100														
Qashqadaryo v-ti	65	52	52	100	100	100	100	100	100	100	100	100	65	52	52									50	50	50			
Navoiy v-ti	61	66	62	100	100	100	100	100	100	61	66	62	61	66	62										50	50			

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdaqi №1675 sonli, 2012 yil 25-dekabrdaqi №1887 sonli, 2013 yil 25-dekabrdaqi №2099 sonli qarorlari asosida tayyorlandi.

Namangan v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100											100	100	100		
Samarqand v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100											100	100	100		
Surxandaryo v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100											100	100	100	10	10
Sirdaryo v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100											100	100	100		
Toshkent v-ti	62	57	50	100	100	100	100	100	100	50	50	50	62	57	50											50	50	50		
Farg'ona v-ti	93	98	98	100	100	100	100	100	100	100	100	100	93	98	98	93	98	98	93	98	98	93	98	98		50	50	50		
Xorazm v-ti	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100											50	50	100		
Toshkent sh.	5	5	3	5	5	3	5	5	3	5	5	3	5	5	3											50	50	50		

o'zgarishini mahalliy budjet xarajatlarini shu hududdan tushadigan soliqlar hisobiga qoplash va yuqori budjetlardan quyi budjetlarga transfertlar hajmini kamaytirish zaruriyati bilan izohlash mumkin. Me'yorlarni aniqlashda umumdavlat va mahalliy soliq tushumlarining kutilayotgan rejasi, mahalliy budjet xarajatlarining kutilayotgan minimumi hisobga olinadi. Ba'zi viloyatlarda masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarida bu me'yorlar 100 foiz gacha belgilangan. Bu soliqlarning tushumi barqaror bo'lgan viloyatlarda mazkur me'yorlar minimal darajada belgilanadi. Chunki soliq bazasining yuqoriligi me'yorlarni past belgilashga sabab bo'ladi. Bunday hududlarda sanoat va savdoning rivojlanganligi hududning soliq salohiyatining yuqori darajasini ta'minlab beradi. Bunday hududga Toshkent shahrini misol qilish mumkin.

4. Davlat jamlanma budjetining daromadlarini shakllanishida ishtirok etuvchi boshqaruv organlarini axborot bilan ta'minlashning yagona bazasini shakllantirish muammolari va echimlari

O'z bazasida qonunchilik va ijro hokimiyati organlari, shuningdek, vakolatli vazirliklar, kumitalar va idoralar foydalana oladigan soliqlar va boshqa majburiy to'povlarni hisoblash va to'lash bo'yicha axborotga ega bo'lgan-birpashgan integratsiyalashgan tizimni yaratish davlat budjetining daromad qismini shakllantirish va ijro etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tashkil etish, muvofiqlashtirishni yaxshilash, samarasini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Bugungi kunda yuqorida keltirilgan ko'pchilik vazirlik va idoralar davlat budjeti daromadlar kismi ijrosi buyicha quyilgan vazifalarni bajarishda xam foydalaniladigan muayyan dasturiy ta'minot, axborotlarni uzatish tarmoqlari, server va boshka uskunalarga ega. Mavjud dasturiy ta'minotlar birinchi navbatda yuqorida keltirilgan vazirlik va qo'mitalarga yuklatilgan idoraviy vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi. O'ziga xos jihat kasb etuvchi ushbu vazifalarning bir qismining bajarilishi ma'lum vazirliklar va idoralar tomonidan qat'iy ta'minlanadi, ularning idoraviy ma'lumotlar bazasidagi axborotlar esa mahfiy bo'lishi mumkin.

Yuzaga kelgan vaziyat va yuqorida keltirilgan holatlar, davlat boshkaruvi organlarini, shuningdek, soliq va boshka majburiy tulovlarning vakolatli ma'murchilarini birlashgan integratsiyalashgan axborot bilan ta'minlash tizimini yaratishda strategiya va taktikani tanlashga, shubxasiz, muayyan turtki beradi. Birlashgan integratsiyalashgan axborot bilan ta'minlash tizimini yaratish byyicha quyilgan vazifalarni amalga oshirishning maqbul usullaridan biri, fikrimizcha, o'zida ma'lum vazirliklar, qo'mitalar va idoralarning axborot tizimlarini birlashtiradigan va bir idoraviy tizimdan boshqasiga zarur ma'lumotlarni uzatish, ya'ni vazirliklar, ko'mitalar, idoralarning axborot bazalari o'rtasida o'zaro axborot almashish imkonini beradigan axborot tizimini yaratish kerak. Ya'ni, vazirliklar, ko'mitalar va idoralarning dasturiy majmualari birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimiga kiritilmog'i lozim.

Moliya vazirligiga, o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun davlat budjetining daromad qismi ijrosini ta'minlaydigan boshka vakolatpi idoralarning axborot bazalarida shakllanadigan ma'lumolpardan foydalanish zarur bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, vazirlikning ma'lumotlar bazasiga boshqa vazirliklar va idoralarning ma'lumot bazalaridan katta hajmdagi ma'lumotlar kelib turishi zarur bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda, ayrim vazirliklar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi hajmi juda oz darajada yoki umuman bo'lmasligi ham mumkin va bu holatni *birlashgan integrallashgan axborot bilan ta'minlash tizimini (BIATT)* yaratishda inobatga olish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chikib, BIATTni yaratish loyihalashtirilayotganda, nazarimizda, birinchi navbatda kuyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. BIATTdan axborot olish va undan foydalanishga qiziqqan har bir ishtirokchi BIATT ning boshka ishtirokchilarining ma'lumotlar bazasidagi axborotlarning xususiyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishi;

2. So'ralayotgan ma'lumotlarni mahfiylik nuqtai nazaridan aniqlash va bu masalani BIATT ishtirokchilari va tegishli mutasaddi idoralar o'rtasida kelishish imkoniyatiga ega bo'lish;

3. BIATT ishtirokchilarining o‘zaro xarakatlarini tartibga soladigan idoralararo rasmiy xujjatlarni, shuningdek, axborot almashinuvi uchun elektron o‘zaro xarakatlar shakllari va maketlarini birgalikda ishlab chiqish va tasdiqlash;

4. Takdim etilayotgan mahfiy ma’lumotlarni ro‘xsatsiz foydalanishdan himoyalash choralarini ko‘rish.

Bugungi kunda davlat budjetining daromad qismining ijrosi bo‘yicha vazifalar va funksiyalarni bajaruvchi idoralarni axborot bilan ta’minlashda bir qator kamchiliklar kuzatiladi. Ularning eng asosiylaridan biri - aynan bir ma’lumot banklar tomonidan soliq, moliya va g‘aznachilik organlariga, shuningdek, Markaziy bankning bo‘linmalariga turli ko‘rinishlarda takdim etilayotgani, ya’ni axborot oqimlari takrorlanayotgani va ularda takdim etilayotgan ma’lumotning har doim ham aynan bir hil bo‘lmasligidir. Shu bilan bir vaqtda, aynan bir ma’lumot turli vazirliklar, idoralar va banklarning dasturiy majmualarida takror-takror qayta ishlanadi va ular har doim ham haqiqiy (ob’ektiv) bo‘lavermaydi. Mazkur muammoni, har bir davlat organi birlashgan integratsiyalashgan tizim orkali ma’lumot olayotib, ularni o‘zining boshqaruv vazifalari kesimida qayta ishlashiga sharoit yaratuvchi samarali axborot hamkorligini yo‘lga qo‘yish orqali jalb etish mumkin va bu, boshqaruvning turli darajalarida tahlil o‘tkazish imkonini beradi.

Birlashgan integratsiyalashgan axborot bilan ta’minlash tizimi uzatilayotgan va qabul qilinayotgan moliyaviy va boshqa ma’lumotlarning asosiy oqimlarini va parametrlarini inobatga olishi, turli davlat organlari o‘rtasida axborot almashinuvi, shuningdek, ular tomonidan boshqa vazirliklarning ma’lumotlar bazasida mavjud bo‘lgan axborotlardan ham joriy ishda, ham rejalashtirish va prognozlashtirish maqsadlarida foydalanish imkonini berishi lozim. Boshpang‘ich bosqichda bu vazifa vazirliklar va idoralar guruhi doirasida hal etilishi, ya’ni ular o‘rtasida almashiladigan ma’lumotlar tarkibi va xajmi aniqlanishi, keyinchalik esa, umumdavlat miqyosida axborot almashishning global tizimini yaratishga qaratilgan masalaning echimiga o‘tish mumkin.

Yuqorida ta’kiddanganidek, davlat organlari uchun turli vazirliklar va idoralarning ma’lumotlar bazasidagi mahfiy ma’lumotlardan foydalanish borasida muammolar mavjud. Bunga, soliq organlarining ma’lumotlar bazasidagi soliq

to'povchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Ammo bu ma'lumotlar tijorat siri sifatida majburiy himoya qilinadi. Xolbuki, ob'ektiv ma'lumotdan foydalanishga ro'xsat etilishi davlat budjeti daromadlarini to'g'ri va aniq prognozlashtirish, rejalashtirish va boshqarishning garovidir. Bu esa davlat organlari o'rtasida birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimi doirasida himoyalangan mahsus axborot oqimlarining mavjudligi ma'lum mohiyatga egaligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimi doirasidagi o'zaro munosabatlar aniq huquqiy asosga va texnik aniqlikka ega bo'lishi lozim.

Birlashgan axborot bilan ta'minlash bazasiga quyidagi ma'lumotlar kiritilishi mumkin:

- solik to'lovchilarning identifikatsiyaviy, statistik, ilmiy va boshqa tavsiflarni o'zida mujassam etgan davlat reestri;
- soliq qonunchiligi buzilganligi to'g'risida, shuningdek, o'tkazilgan nazorat chora-tadbirlari, natijalari va ular asosida qabul qilingan qarorlar to'g'risida ma'lumotlar;
- tushumlarning turlari (soliqlar, jarima sanksiyalari, boqimandalar, ortiqcha to'langan summalar) kesimida yuridik va jismoniy shaxslardan Davlat budjetiga tushgan soliq, bojxona va boshqa tushumlar hakida ma'lumotlar.

Bundan tashqari, birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimining ma'lumotlar bazasiga, shuningdek, quyidagi ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin:

- turli darajadagi budjetlarga daromadlar tushumi va xarajatlar ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar, tartibga solinadigan soliqlarning taqsimlanish me'yorlari, soliq to'lovchilar, soliq turlari, taqdim etilgan muddatni uzaytirish muddatlari bo'yicha imtiyozlarni taqdim etish va bekor qilish to'g'risidagi qarorlar;
- soliq to'lovchining soliq hisobi, jarima sanksiyalarining to'langanligi hamda soliqlarni to'lash bo'yicha qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumotlar;
- O'zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasidan o'tkaziladigan tovarlar va boshqa mol-mulklarning ko'rsatilgan qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- statistik ma'lumotlar, statistik kodlar va boshqalar;
- erga egalik to'g'risidagi ma'lumotlar;

- boshqa dolzarb ma'lumotlar.

Zarur axborotlarning o'zaro almashinuvi, shuningdek, uni qayta ishlash va tahlil qilishni avtomatlashtirish, tegishli davlat organlarining Davlat budgetiga tushumlarini yig'ish, ularning hisobi va nazorati bo'yicha o'z vazifalarini sifatli va qisqa muddatlarda bajarishi, birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimiga boshqa foydalanuvchilar kiritadigan ma'lumotlardan foydalanishi - xodimlarning ish vaqtini bo'shatish, hatolar ehtimolini qog'oz shakldagi ma'lumotlardan foydalanmagan holda "qo'lda kiritiladigan" iga qaraganda sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

Davlat moliyasi sohasida eng yangi axborot texnologiyalarini va ilmiy ishlanmalarni joriy etish ayni zarurat. Ya'ni, shunisi aniqki, bu yunalishda davlat darajasida amapga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish zarur bo'ladi, chunki har bir vazirlik va idoraning o'z axborot texnologiyalari za dasturiy majmualarini yaratishi hamda ularni ko'llashi keyinchalik birlashgan davlat axborot bazasini yaratish maqsadida ularni birlashtirishda sezilarli xarajatlarni talab etadi.

Davlat budgetini tuzish va ijro etishning avtomatlashtirilgan tizimini, davlat budgetiga daromadlar tushumi va hisobi jarayonini avtomatpashtirish bo'yicha ishlar Moliya vazirligi tizimida ham amalga oshirilmoqda. Yaratilayotgan avtomatlashtirilgan tizim, fikrimizcha, birlashgan integratsiyalashgan axborot tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Avtomatlashtirish lozim bo'lgan Davlat budgetini tuzish, tasdiqlash va g'azna ijrosining quyidagi jarayonlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- budgetni rejalashtirish;
- g'azna ijrosi;
- moliyaviy nazorat tartiblari;
- boshqaruv hisobi va tahlil.

Budgetlarni shakllantirish va tasdiqlash bosqichida o'tgan yillardagi hisobotlarni shakllantirish va foydalanish, formulalar (egiluvchan rejim)ni o'zgartirish, davlat budgeti loyihasini tuzish uchun zarur tahliliy ma'lumotlarni, turli xujjatlarni va boshqalarni generatsiya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda amal qilayotgan budget ijrosi jarayonini qisman avtomatlashtirishni ta'minlayotgan vazirliklar va idoralarning o'z dasturiy mahsulotlari mavjudligiga qaramasdan soliq, bojxona, moliya va g'azna organlari, shuningdek, banklardagi axborot tizimlari mukammallikdan yiroq. Ushbu organlar o'rtasida axborot tizimlarining o'zaro sifatli harakatini ta'minlaydigan dasturiy maxsulot mavjud emas. Shuni ta'kidlash zarurki, daromadlar tushumi va hisobi ustidan davlat nazorati jarayonlarini yanada avtomatlashtirishni davom ettirish, bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash - nafaqat davlat budjeti daromad qismining g'azna ijrosini joriy qilish va rivojlantirish, balki butun davlat moliyasi tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun ham zarur.

Hulosa

Ҳозирги пайтда солиқ-бюджет сиёсати яхлитлигини таъминлашнинг омиллари ва мезонларини баҳолашнинг ягона тизимлаштирилган методологияси ва асослари бўйича назарий қарашларнинг мукамал тизими мавжуд эмас. Мавжуд назарий изланишлар солиқ-бюджет сиёсати яхлитлигини таъминлаш ва унга таъсир этувчи омиллар ҳамда мезонларни тўлиқ ёритиб бера олмайди. Бизнинг фикримизча, бундай мезонларни ишлаб чиқишда қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

- давлатнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёт даражаси;
- давлат бюджети даромадлари ва харажатлари таркиби ҳамда уларнинг самарадорлик кўрсаткичлари;
- ялпи ички маҳсулот таркибидаги солиқлар ва бошқа тўловларнинг улуши;
- аҳолининг турмуш даражаси (даромадлилиги);
- солиқларнинг аҳоли ва иқтисодиёт тармоқлари ўртасида тақсимланиш хусусиятлари;
- давлат молия сиёсатининг асосий йўналишлари;
- мавжуд иқтисодий вазиятларни инобатга олган ҳолда белгиланган вазифалар кўлами;
- бюджет дефицити даражаси.

1. Ўзбекистон Республикаси давлат бюджетининг солиқли даромадларини таҳлил қилиш натижалари ҳозирги даврда эгри солиқлар бўйича тушум суммаси бюджет даромадларининг таркибида нисбатан юқори салмоқни эгаллашини кўрсатди. Бунинг асосий сабаби шундаки, эгри солиқлар соф фискаллик характериға эға бўлиб, маҳсулотларнинг баҳосида ҳисобға олинганлиги сабабли тўғри солиқларға нисбатан барқарор тушумға эғадир.

Юқорида зикр этилган хулосаларға таянган ҳолда давлат бюджети даромадларини шакллантириш билан боғлиқ бўлган долзарб муаммоларни ҳал қилиш мақсадида ишлаб чиқилган тавсияларнинг асосийлари қуйидагилардан иборатдир:

1. Давлат бюджети дефицитининг юзаға келишини мамлакатда ўтиш даври билан боғлиқ иқтисодий муаммоларнинг кескинлашуви билан боғлаш мақсадға мувофиқдир. Бунинг боиси шундаки, ўтиш даврида солиқ тушумлари кескин камаяди, ҳукуматнинг қимматли қоғозларини сотиш даражаси пасаяди. Бу ҳолатлар, пировард натижада, давлат бюджети даромадларининг режалаштирилган миқдорда тушмаслиғиға сабаб бўлади.

2. Маҳаллий бюджет тартибға солувчи даромадларининг миқдори камида уч молия йили мобайнида ўзгармайдиган қатъий норматив кўрсаткичлар шаклида белгилаб қўйилиши лозим. Мазкур нормативларни ишлаб чиқиш учун асос қилиб илмий жиҳатдан асосланган ижтимоий нормативлар олиниши мақсадға мувофиқдир.

3. Дотациялар ва субвенциялар маҳаллий молия органларини зарур пул маблағлари билан таъминлаб туриш воситаси сифатида сақлаб қолиниши керак. Улардан маҳаллий бюджетларға бириктирилган даромадлар ва уни тартибға солувчи даромадлари бўйича белгиланган режанинг бажарилмай қолиши натижасида юзаға келадиган пул етишмовчиликларини қоплаш мақсадида фойдаланишға рухсат этилмаслиғи лозим.

4. Тўғри солиқларнинг давлат бюджети даромадлари ҳажмидаги салмоғини ошириш мақсадида қуйидаги тадбирларни амалға ошириш зарур:

- тўғри солиқларнинг давлат бюджети даромадларининг умумий ҳажмидаги салмоғининг пасайиш тенденциясига барҳам бериш учун амалдаги

солиқ имтиёзларини ва тўловсизлик, яъни бюджетдан қарздорлик муаммосини қайта кўриб чиқиш;

- ер солиғининг ставкаларини белгилашда қишлоқ хўжалик товар ишлаб чиқарувчилари учун фойдаланиладиган ердан олинадиган даромаднинг миқдорини ҳисобга олиш;

- юридик шахслардан олинадиган мол-мулк солиғининг рағбатлантирувчилик ролини ошириш мақсадида солиққа тортилмайдиган минимум миқдорини жорий қилиш;

5. Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети ижтимоий харажатларининг ўсиш тенденциясига эга эканлиги ва ҳукумат йирик инвестицион харажатларининг мавжудлигини ҳисобга олиб давлат бюджети даромадларининг таркибида қўшилган қиймат солиғи ва акциз солиғи бўйича тушумлар суммасининг барқарор салмоғини таъминлаш зарур.

6. Қўшилган қиймат солиғини ундириш юзасидан Европа Иттифоқи давлатларининг илғор тажрибаларидан республикамиз шароитида фойдаланишни йўлга қўйиш лозим. Хусусан, солиқ ставкаларини ижтимоий аҳамиятга эга бўлган товарларнинг турлари бўйича табақалаштириш ва солиққа тортилмайдиган оборотни белгилаш муҳим амалий аҳамият касб этади.

7. Давлат бюджетига тўловларни ўз вақтида ва тўлиқ ундиришини таъминлаш мақсадида қуйидаги тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ:

- хўжалик юритувчи субъектларнинг ички солиқ назоратини кучайтириш;

- давлат солиқ назоратини такомиллаштириш;

- умумдавлат солиқларини асосий тўловчилар ҳисобланган корхоналар фаолиятини жойларда текширишнинг самарадорлигини ошириш.

8. Мамлакатимизда хўжалик субъектларининг инвестицион фаоллигини оширишда солиқларнинг таъсирини кучайтириш мақсадида маҳсулот таннархига киритиладиган харажат турларининг даражасини мўътадиллаштириш мақсадида банк кредитлари бўйича фоиз тўловларини Марказий

банкнинг қайта молиялаштириш ставкасидан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларнинг таннархига киритиш керак.

9. Хўжалик субъектларининг инвестицион харажатларини молиялаштиришнинг асосий манбаларидан бири бўлган амортизация ажратмаларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш лозим.

10. Юридик шахсларнинг депозит сертификатлари бўйича оладиган даромадлари даромад солиғидан озод қилинмаслиги керак. Чунки, юридик шахсларнинг тижорат банкларининг депозит сертификатларини сотиб олиш учун сарфлаган маблағлари солиққа тортилмайдиган маблағлардир ва улар молиявий жиҳатдан барқарор бўлган корхоналарда зарурий харажатлардан ортиқ бўлган маблағлар сифатида мавжуд бўлади.

Кўрсатиб ўтилган таклифлар ва тадқиқот натижалари мамлакатимизда бюджет-солиқ тизимидаги ислохотлар самарадорлигини оширишга, давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўналишларини такомиллаштиришга хизмат қилади, деб ҳисоблаш мумкин.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2001.- 39b.(o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan)
2. O‘zbekiston Respublikasining “Budjet kodeksi” T. 2013 yil 26-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1449-son 24.12.2010.
4. “O‘zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1675-son 30.12.2011.
5. “O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-1887-son 25.12.2012.

6. “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ-2099-son 25.12.2013.
7. “Budjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta‘minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 16.06.2007 yil 148-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri).
8. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat‘iyat bilan davom ettirish” – T.: O‘zbekiston. 2013 y. 57 b.
9. I.A. Karimov “2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilning asosiy yakunlari va 2014-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. 18.01.2014 yil
10. Azizova I.A. “Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” T.: 2010 y. “infoCOM.UZ MChJ” nashriyoti 152 bet.
11. Афанасев М.П. Бюджет и бюджетная система (изд:2), Юрайт, 2011г. 782 стр.
12. Burxonov U. Davlat xaridi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010 y. 160 bet
13. Вахабов А.В., Срожиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. Т. "ИҚТИСОД-МОЛИЯ", 2007 й. 454 стр.
14. Vaxobov A. V., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008 y. 287 bet
15. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Budjet nazorati va auditi: O‘quv qo‘llanma / T.: «infoCOM.UZ». 2009 y. 192 bet.
16. Malikov T.S., Haydarov N.X. Budjet daromadlari va xarajatlari. - Tashkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y. - 245 bet
17. Malikov T.S., Haydarov N.X. Davlat budjeti.- Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007y. - 84 bet

18. Нешиной А.С. Бюджетная система Российской Федерации (изд:10), Дашков и К. 2011 г. 336 стр.
19. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O‘quv qo‘llanma. T., Iqtisod-moliya, 2012 y. 207 bet
20. Srojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010y. 500 bet
21. Srojiddinova Z. Budjetlararo munosabatlar. «infoCOM.UZ». Toshkent-2010 y. 156 bet.
22. Seleznev A.Z. Budjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Magistr. 2011g. 383 str.
23. Ходжаев Р., Эгамбердиев А., Исаев О. Государственный бюджет. Учебное пособие.- Т.: “ИҚТИСОД- МОЛИЯ”, 2008 г. 112 стр.
24. Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta’minlash. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan va texnologiya” 2007 y. 275 bet.
25. Qosimova G. Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008 y. 272 bet
26. Qosimova G., Shaakramov K. Mahalliy budjetlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2012. 260 b.
27. Haydarov M., A. Suvonqulov, B. Sugirbaev, B. Nurmatov. Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010 y. 163 bet.
28. Xayriddinov A. Mahalliy budjetlarning moliyaviy imkoniyatlari // Jamiyat va boshqaruv. – Toshkent, 2007. - №4. – B.92-93.
29. Xayriddinov A. Mahalliy budjetlar daromad bazalari barqarorligini aniqlovchi ko‘rsatkichlar tizimi // Moliya. – Toshkent, 2009. № 4. – B. 28-33.
30. Internet saytlari:
www.gov.uz-(O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali)
www.ziyounet.uz-(Axborot ta’lim tarmog‘i)
www.soliq.uz-(O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi)
www.lex.uz-(O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari milliy bazasi portali)
www.publicfinance.uz-(O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimini isloh qilish loyihasi portali)